



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



№7(1)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 196 sahifa,
1-iyul, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyuu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (PhD)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Raqamli ta'lim muhitida o'quvchilarning milliy qadriyatlarga oid tasavvurlarini shakllantirishning pedagogik-psixologik mexanizmlari.....	10
<i>Davlatnazarova Ziyodabonu Muxtor qizi</i>	
Talabalarning xulqidagi devyatsiya darajasining yuqorilab ketishiga ta'sir etuvchi ijtimoiy-psixologik omillar.....	16
<i>Ergashev Jo'rabek Xalilovich</i>	
Zo'rvonlikka uchragan bolalarni va ularning oilalarini zo'rvonlikdan himoya qilishning normativ-huquqiy va ijtimoiy-psixologik asoslari.....	19
<i>Ergasheva Gullolaxon Nosirjon qizi</i>	
Tinglab tushunish kompetensiyasining psixolingvistik va pedagogik asoslari.....	24
<i>Jonbo'tayeva Maxarramxon</i>	
O'z-o'zini rivojlantirish kompetensiyasining kasbiy kompetentlik tizimidagi o'рни.....	27
<i>Kutliyeva Feruzaxon Yusupovna</i>	
Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning ijtimoiylashuvini ta'minlashga xizmat qiluvchi zamonaviy kompleksni rivojlantirish.....	31
<i>Yunusov Mirsaid Xudayarovich, Istamova Sevdo Ashirqul qizi</i>	
Elektr tizimlari dinamik barqarorligini STEAM va Spiral (Regressus, Progressus) metodlari asosida o'qitish.....	35
<i>Safarov Xoliyor Sayyid Safar o'g'li</i>	
O'quvchilarda badiiy-estetik did va dizaynerlik ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasi.....	39
<i>Norbutayeva Dilafuz Abdurasulovna</i>	
Talabalarda ijtimoiy yetuklikni rivojlantirishning psixologik mexanizmlari va uning ta'lim sifatiga ta'siri.....	43
<i>Rahimova Nazokatxon Kasimjonovna</i>	
Model for Improving Students' Professional Competencies Based on Motivational Learning Approach.....	49
<i>Alibekova Mahzuna</i>	
Bo'lajak tarix o'qituvchilarining tarixiy tafakkurini shakllantirishning tuzilmasi va pedagogik komponentlari... 54	54
<i>Djumaniyazov Farxod Ulugbekovich</i>	
Yengil atletika bilan shug'ullanuvchi 14-16 yoshli sportchi qizlarda mashg'ulotlar davomiyligi.....	59
<i>Oralova Bibixol Husniddin qizi, G'ulomova Maftuna Sayfulla qizi</i>	
Boshlang'ich ta'limda ingliz tilini o'yinlar orqali o'rgatish.....	64
<i>Ruzmetova D. A.</i>	
Bo'lajak texnologiya fani o'qituvchisining axloqiy faoliyatini shakllantirishda pedagogik vositalarning imkoniyatlari.....	68
<i>Saydanova Dilafuz Sadirdinovna</i>	
Xorijiy tajribalar va zamonaviy yondashuvlar asosida tyutorlar kasbiy salohiyatini rivojlantirishda malaka oshirish tizimini takomillashtirish.....	75
<i>Ubaydullayev Zuxriddin Botirovich</i>	
Effective Classroom Activities for Developing Speaking Skills Among EFL Learners.....	79
<i>Akhmatova Munisa Orif qizi</i>	
Xalqaro va milliy baholash dasturlarini hisobga olgan holda boshlang'ich ta'lim mazmunini yangi ta'lim trendlari bilan boyitish.....	86
<i>Gulmira Abdullayeva, Egamberganova Yorqinoy Oллоbergan qizi</i>	
Ijtimoiy tarmoqlarning shaxs identifikatsiyasiga ta'sirining ijtimoiy-psixologik omillari.....	90
<i>Tojiboyeva Nodiraxon Tursunaliyevna</i>	
Analysis of the Methodology for Developing Students' Creative Thinking Competence Using Artificial Intelligence Tools Based on STEAM Educational Technologies.....	94
<i>Tursunaliyeva Nazokat Tokhir qizi</i>	



Oliy ta'lim muassasalarida e-Portfolio ma'lumotlarini markazlashmagan tarzda boshqarishning afzalliklari va muammolari	102
<i>Yusupova Dono Adambayevna, Jalolov Tursunbek Sadriddinovich</i>	
Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining inklyuziv-tolerantlik haqidagi qarashlari tahlili	110
<i>Amangeldiyeva Adolat Ravshanbek qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarni savod o'rgatishga tayyorlashning samarali shakl, metod va didaktik vositalari	115
<i>Go'zal Qurbonova</i>	
Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda hayot xavfsizligi ko'nikmalarini shakllantirishning dolzarb pedagogik masalalari.....	121
<i>Muratova Munavvar O'rol qizi</i>	
Tarkibida toponimlar mavjud maqol va matallarning lingvomadaniy xususiyatlari va ularni o'qitishning lingvodidaktik asoslari.....	126
<i>Usmonova Zamira Jaxongirovna</i>	
Psixologik-pedagogik tadqiqotlarda tassavur fenomenologiyasi	130
<i>Axmedova Shaxlo Shoxob qizi</i>	
Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish metodikasi (haykaltaroshlik san'ati misolida).....	133
<i>Panayeva Maloxat Muminovna</i>	
Взаимосвязь склонности к сравнению внешности, интернет-зависимости и уровня притязаний у студентов-юношей	136
<i>Багдасарова Диана Левоновна</i>	
Роль каракалпакской народной национальной музыки в формировании духовно-нравственных качеств учащихся	141
<i>Зарымова Турсынай Бердибай кызы</i>	
A Review of the Literature on Stem Cells in Dentistry	145
<i>Ruziyeva Kamola Akhtamovna</i>	
Bolalar musiqa va san'at maktablarida estrada san'atini o'qitish masalalari (gitara cholg'usi misolida)	150
<i>Abdullayev O'tkir Sadullayevich</i>	
Talabalarda innovatsion kasbiy kompetentlikni rivojlantirish texnologiyalari	154
<i>Avezov Davronbek Soburovich</i>	
O'zbek xalq pedagogikasi an'alarining zamonaviy ta'lim tizimidagi transformatsiyasi	158
<i>Erkaboyeva Nigora Shermatovna</i>	
Texnika va iqtisodiyot yo'nalishidagi oliy ta'lim muassasalari talabalarida ingliz tilini mustaqil o'rganishning psixologik-pedagogik xususiyatlari	163
<i>Mamatqodirova Gulnigor Rustamjonovna</i>	
Yangi dunyoviy tartibotning shakllanishi jarayonida siyosiy taraqqiyot barqarorligi va xavfsizligini ta'minlash muammolari	168
<i>Nazarov Alisher Narimanovich</i>	
Ota-onasiz tarbiyalanayotgan o'smir o'g'il bolaning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari.....	171
<i>Qodirov Jahongir Neymat o'g'li</i>	
Kutubxona muhitida talabalarining mustaqil ta'lim faoliyatini tashkil etishning innovatsion modellari.....	176
<i>Qosimova Xolida Nabiyevna</i>	
Jismoniy imkoniyati cheklangan maktabgacha yoshdagi bolalarda milliy harakatli o'yinlar orqali jismoniy sifatlarni rivojlantirish	179
<i>Raxmatullayeva Durdoni Fazliddin qizi</i>	
Personalized Approach to the Treatment of Generalized Periodontitis in the Prediction of Cardiovascular Complications Based on Salivary Proteomic Profiling.....	182
<i>Shodiev O. U., Nazarova N. Sh., Agababayan I. R.</i>	
O'smirlarda irratsional ustanovkalar shakllanishining ijtimoiy-psixologik omillari	187
<i>Toshboltayeva Nodira</i>	
Роль интерактивного лингвокультурологического пространства в формировании лингвокультурной компетенции студентов национальных групп филологических направлений.....	191
<i>Рустамова Ферузахон Махмуджановна</i>	



TEXNIKA VA IQTISODIYOT YO'NALISHIDAGI OLIY TA'LIM MUASSASALARI TALABALARIDA INGLIZ TILINI MUSTAQIL O'RGANISHNING PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI

Mamatqodirova Gulnigor Rustamjonovna

Andijon davlat texnika instituti, tillar va gumanitar fanlar kafedrasida assistenti
Andijon davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada texnika va iqtisodiyot yo'nalishidagi oliy ta'lim muassasalari talabalarining ingliz tilini mustaqil o'rganishining psixologik-pedagogik xususiyatlari ilmiy adabiyotlar tahlili asosida o'rganilgan. Mustaqil ta'lim jarayoniga ta'sir etuvchi kognitiv, motivatsion, emotsional va pedagogik omillar tahlil qilinib, ularning o'zaro bog'liqligi yoritilgan. Shuningdek, English for Specific Purposes (ESP) yondashuvi, o'z-o'zini boshqarish, o'z-o'zini samarali baholash (self-efficacy) hamda kasbiy motivatsiyaning mustaqil til o'rganishidagi ahamiyati asoslab berilgan. Tadqiqot natijalari texnika va iqtisodiyot yo'nalishidagi talabalar uchun ingliz tilini mustaqil o'rganishni samarali tashkil etishga xizmat qiluvchi psixologik-pedagogik tavsiyalarni ishlab chiqish uchun metodik asos bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: ingliz tili, mustaqil o'rganish, psixologik-pedagogik xususiyatlar, motivatsiya, ESP, oliy ta'lim.

Abstract: This article examines the psychological and pedagogical features of independent English language learning among students of technical and economic higher education institutions based on a comprehensive analysis of scientific literature. It analyzes the cognitive, motivational, emotional, and pedagogical factors influencing the process of independent learning and highlights their interrelationships. Furthermore, the study substantiates the significance of the English for Specific Purposes (ESP) approach, self-regulation, self-efficacy, and professional motivation in promoting successful independent language learning. The findings provide a methodological foundation for developing psychological and pedagogical recommendations aimed at improving the effective organization of independent English language learning for students majoring in technical and economic disciplines.

Key words: English language, independent learning, psychological and pedagogical features, motivation, English for Specific Purposes (ESP), higher education.

Аннотация: В данной статье на основе анализа научной литературы исследованы психолого-педагогические особенности самостоятельного изучения английского языка студентами технических и экономических высших учебных заведений. Проанализированы когнитивные, мотивационные, эмоциональные и педагогические факторы, влияющие на процесс самостоятельного обучения, а также раскрыта их взаимосвязь. Кроме того, обосновано значение подхода English for Specific Purposes (ESP), саморегуляции, самоэффективности и профессиональной мотивации в самостоятельном изучении иностранного языка. Результаты исследования служат методической основой для разработки психолого-педагогических рекомендаций, направленных на эффективную организацию самостоятельного изучения английского языка студентами технических и экономических направлений подготовки.

Ключевые слова: английский язык, самостоятельное обучение, психолого-педагогические особенности, мотивация, ESP, высшее образование.

KIRISH

Jahon iqtisodiyotining globallashuvi va raqamli transformatsiyasi sharoitida ingliz tili texnika va iqtisodiyot sohasidagi mutaxassislar uchun kasbiy zaruratga aylandi. Xalqaro ilmiy hamjamiyat bilan muloqot qilish, xalqaro loyihalarda hamkorlikni yo'lga qo'yish, texnik hujjatlar va ilmiy adabiyotlarni o'qish hamda taqdimotlar o'tkazish ingliz tilini yuqori darajada bilishni talab etadi. Shu bois texnika va iqtisodiyot yo'nalishidagi oliy ta'lim muassasalarida ingliz tilini o'qitish sifatini oshirish zamonaviy ta'limning ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. Biroq amaldagi o'quv dasturlarida ingliz tili faniga ajratilgan auditoriya mashg'ulotlari hajmi ko'pincha talabalarning

kasbiy ehtiyojlarini to'liq qondirish uchun yetarli emas. Natijada talabalar ingliz tilini mustaqil ravishda o'rganishga majbur bo'lmoqdalar. Mustaqil o'rganish (Self-Directed Learning – SDL) katta yoshdagilar ta'limining muhim tarkibiy qismi sifatida andragogika fanida keng o'rganilgan (Knowles, 1975; Garrison, 1997). Biroq texnika va iqtisodiyot yo'nalishidagi talabalar uchun xos bo'lgan psixologik-pedagogik xususiyatlar alohida ilmiy tadqiqotlarni talab etadi.

O'zbekistonda mazkur muammo ayniqsa dolzarb ahamiyat kasb etmoqda, chunki texnika va iqtisodiyot yo'nalishidagi oliy ta'lim muassasalarida ingliz tilini o'qitishga ajratiladigan auditoriya soatlari cheklangan bo'lsa-da, xalqaro standartlarga javob beradigan raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlash talabi tobora ortib bormoqda (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 20-noyabrda PQ-4507-son¹ qarori). Shu munosabat bilan ushbu maqolada texnika va iqtisodiyot yo'nalishidagi talabalar tomonidan ingliz tilini mustaqil o'rganishning psixologik-pedagogik xususiyatlari ilmiy adabiyotlar sharhi (literature review) asosida tahlil qilinadi ^[1].

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Texnika va iqtisodiyot yo'nalishidagi oliy ta'lim muassasalari talabalarining ingliz tilini mustaqil o'rganish masalasi zamonaviy pedagogika hamda ta'lim psixologiyasining ustuvor ilmiy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, mustaqil ta'limning samaradorligi kognitiv, motivatsion, emotsional va pedagogik omillarning o'zaro uyg'unligiga bog'liq bo'lib, mazkur jarayon talabadan o'zini boshqarish, mas'uliyat va refleksiv yondashuvning yuqori darajasini talab etadi ^{[6], [15], [16]}.

Mustaqil o'rganish nazariyasining ilmiy asoslari P. Candy va D. Garrison tadqiqotlarida batafsil yoritilgan. Candy mustaqil ta'limni shaxsning uzluksiz ta'lim olishga tayyorligini belgilovchi muhim kompetensiya sifatida talqin etib, bunda o'quvchining o'z maqsadini belgilashi, o'quv faoliyatini rejalashtirishi va natijalarni baholashi muhim ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlaydi ^[6].

Garrison esa mustaqil o'rganish modelida motivatsiya, o'zini boshqarish va metakognitiv nazoratni asosiy tarkibiy qismlar sifatida ko'rsatib, aynan ushbu komponentlarning uyg'unligi ta'lim samaradorligini belgilashini qayd etadi ^[15].

Holecning fikricha, til o'rganishda mustaqillik talabaning o'z ta'lim jarayoni uchun mas'uliyatni to'liq o'z zimmasiga olishi bilan tavsiflanadi ^[16]. Mazkur nazariy qarashlar texnika va iqtisodiyot yo'nalishidagi talabalar uchun ingliz tilini mustaqil o'rganishni tashkil etishda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Texnika yo'nalishi talabalarining o'quv uslublari bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar ularning analitik fikrlashga, mantiqiy izchillikka hamda vizual axborotni tez qabul qilishga moyilligini ko'rsatadi.

Felder va Silverman muhandislik ta'limida talabalar asosan vizual, faol va ketma-ket o'rganish uslubiga ega ekanligini aniqlaganlar ^[12].

Gardner esa ko'p intellekt nazariyasida texnik mutaxassislik vakillarida mantiqiy-matematik hamda fazoviy intellekt ustun rivojlanganligini ta'kidlaydi ^[13]. Ushbu ilmiy qarashlar texnika yo'nalishi talabalarining ingliz tilini mustaqil o'rganishida vizual materiallar, amaliy topshiriqlar, texnik matnlar va kasbiy vaziyatlarga asoslangan o'quv resurslaridan samarali foydalanish zarurligini ilmiy jihatdan asoslaydi.

Mustaqil til o'rganishda motivatsiya hal qiluvchi omillardan biri sifatida e'tirof etiladi. Gardner va Lambert xorijiy tilni o'rganishda instrumental hamda integrativ motivatsiya tushunchalarini ilmiy muomalaga kiritgan bo'lib, texnika va iqtisodiyot yo'nalishidagi talabalar orasida aynan instrumental motivatsiya, ya'ni kasbiy faoliyat, mehnat bozori va xalqaro hamkorlik ehtiyojlari ustun ekanligini ko'rsatganlar ^[14].

Dörnyei va Ushioda esa motivatsiyani shaxsning kelajakdagi kasbiy identifikatsiyasi bilan bog'lab, talabaning o'zini xalqaro mutaxassis sifatida tasavvur qilishi mustaqil o'rganishga bo'lgan ichki ehtiyojni kuchaytirishini ta'kidlaydilar [10]. Mazkur yondashuvlar shuni ko'rsatadiki, texnika va iqtisodiyot yo'nalishidagi talabalar uchun tashqi motivatsiya bilan bir qatorda ichki motivatsiyani shakllantirish ham muhim pedagogik vazifa hisoblanadi. Psixologik omillar orasida o'ziga bo'lgan ishonch va o'z-samaradorlik (self-efficacy) mustaqil o'rganishning muhim sharti sifatida qaraladi. Bandura nazariyasiga ko'ra, talabaning o'z imkoniyatlariga bo'lgan ishonchi o'quv faoliyatidagi qat'iyat, izchillik va muvaffaqiyat darajasiga bevosita ta'sir ko'rsatadi ^[3].

Mustaqil ingliz tili ta'limida aynan o'z-samaradorlik darajasi yuqori bo'lgan talabalar murakkab topshiriqlardan qochmaydi, aksincha, ularni rivojlanish imkoniyati sifatida qabul qiladi. Shu nuqtai nazardan, Bandura nazariyasi texnika va iqtisodiyot yo'nalishidagi talabalar uchun individual o'quv strategiyalarini ishlab chiqishda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Til o'rganish jarayonida uchraydigan psixologik to'siqlar ham ilmiy adabiyotlarda keng yoritilgan. Horwitz va hammualliflari xorijiy tilni o'rganishdagi xavotir (Foreign Language Classroom Anxiety) tushunchasini ishlab chiqib, ayniqsa og'zaki nutq jarayonida yuzaga keladigan emotsional zo'riqish o'quv natijalariga salbiy ta'sir ko'rsatishini isbotlaganlar ^[17].

1 <https://lex.uz/docs/-4613683>



Bekleyen universitet talabalarida olib borgan tadqiqotida xorijiy tilni o'rganishda o'ziga ishonchsizlik, xatodan qo'rqish va muloqotdagi tortinchoqlik asosiy psixologik muammolar ekanligini qayd etadi ^[4].

Hurd esa masofaviy va mustaqil ta'lim sharoitida bunday psixologik to'siqlar yanada murakkablashishini, chunki talaba o'qituvchining doimiy qo'llab-quvvatlashidan mahrum bo'lishini ta'kidlaydi ^[18].

Demak, mustaqil o'rganish samaradorligini ta'minlash uchun psixologik qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

O'quv faoliyatida yuqori motivatsiya va samaradorlikni ta'minlovchi psixologik holatlardan biri sifatida M. Csikszentmihalyining "Flow" nazariyasi alohida e'tiborga loyiqdir. Muallifning fikricha, talaba bajarilayotgan vazifaning murakkabligi bilan o'z imkoniyatlari o'rtasidagi muvozanatni his qilganida maksimal darajadagi o'quv faolligi yuzaga keladi ^[9].

Texnika va iqtisodiyot yo'nalishidagi talabalar uchun kasbiy mazmundagi ingliz tili materiallari bilan ishlash aynan shunday holatni yuzaga keltirib, mustaqil ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Pedagogik nuqtai nazardan qaralganda, texnika va iqtisodiyot yo'nalishidagi talabalar uchun English for Specific Purposes (ESP) yondashuvi eng maqbul metodik yechimlardan biri hisoblanadi. Dudley-Evans va St. John ESPni talabaning kasbiy ehtiyojlariga asoslangan ta'lim modeli sifatida tavsiflab, o'quv materiallari mutaxassislik mazmuni bilan integratsiyalashgandagina yuqori natija berishini ta'kidlaydilar ^[11].

Belcher ham ESPning asosiy maqsadi talabaning real kasbiy kommunikativ ehtiyojlarini qondirishdan iborat ekanligini qayd etadi ^[6]. Mazkur qarashlar texnika va iqtisodiyot yo'nalishidagi talabalarning ingliz tilini mustaqil o'rganishida autentik kasbiy matnlar, ilmiy maqolalar, texnik hujjatlar va amaliy vaziyatlardan foydalanish zarurligini ko'rsatadi.

Mustaqil til o'rganish jarayonida samarali strategiyalarni shakllantirish masalasi Chamot va O'Malley tadqiqotlarida keng yoritilgan. Mualliflar CALLA modeli orqali metakognitiv, kognitiv va ijtimoiy strategiyalarni rivojlantirish mustaqil o'rganish samaradorligini sezilarli darajada oshirishini ilmiy asoslaydilar ^[7]. Mazkur model texnika va iqtisodiyot yo'nalishidagi talabalar uchun o'quv faoliyatini rejalashtirish, nazorat qilish va baholash ko'nikmalarini rivojlantirishda alohida ahamiyatga ega.

Shuningdek, gender omilining mustaqil til o'rganishga ta'siri ham ayrim tadqiqotlarda o'rganilgan. Bacon xorijiy tilni tinglab tushunishda erkak va ayol talabalar turli strategiyalardan foydalanishini aniqlagan ^[2].

Chavez esa til o'rganish jarayonida genderga xos kommunikativ xulq-atvor farqlarini ko'rsatib, pedagogik yondashuvni individual xususiyatlarni hisobga olgan holda tashkil etish zarurligini ta'kidlaydi ^[8]. Biroq mazkur tadqiqotlarda aynan texnika va iqtisodiyot yo'nalishidagi talabalar alohida tadqiqot obyekti sifatida yetarli darajada o'rganilmagan.

Tahlil qilingan ilmiy adabiyotlar shuni ko'rsatadiki, texnika va iqtisodiyot yo'nalishidagi talabalarda ingliz tilini mustaqil o'rganish muvaffaqiyati o'zini boshqarish kompetensiyasi, kasbiy motivatsiya, o'z-samaradorlik, psixologik barqarorlik hamda ESP yondashuviga asoslangan pedagogik texnologiyalarning o'zaro uyg'unligiga bog'liq. Shu bilan birga, mavjud tadqiqotlarning aksariyati umumiy xorijiy til ta'limiga bag'ishlangan bo'lib, O'zbekiston oliy ta'lim muassasalarining texnika va iqtisodiyot yo'nalishidagi talabalarining psixologik-pedagogik xususiyatlarini kompleks yorituvchi ilmiy tadqiqotlar yetarli emas. Mazkur holat ushbu yo'nalishda yangi empirik hamda amaliy tadqiqotlarni amalga oshirish zarurligini ko'rsatadi. Ingliz tilini mustaqil o'rganishda o'z-samaradorlik (self-efficacy) ayniqsa muhim omil hisoblanadi, chunki bunda tashqi rag'batlantirish (o'qituvchi bahosi yoki guruhdoshlarning fikri) cheklangan bo'ladi. Mills (2014) texnika yo'nalishidagi talabalar uchun o'z-samaradorlikni rivojlantirishning to'rtta samarali usulini tavsiya etadi:

- kichik muvaffaqiyat tajribalarini (mastery experiences) bosqichma-bosqich to'plash;
- o'xshash muvaffaqiyatli shaxslar faoliyatini kuzatish (vicarious experiences);
- mentor yoki o'quv hamkori tomonidan ijtimoiy rag'batlantirish (verbal persuasion);
- hamda xavotirni kamaytirish orqali fiziologik holatni boshqarish.

Ushbu yondashuvlar texnika va iqtisodiyot yo'nalishidagi talabalarning ingliz tilini mustaqil o'rganish samaradorligini sezilarli darajada oshirishga xizmat qiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mustaqil ingliz tilini o'rganish jarayonining samaradorligi talabaning ijtimoiy muhit bilan faol hamkorligi hamda kasbiy kommunikatsiya jarayonlarida ishtirok etishiga bevosita bog'liq. Kasbiy hamjamiyatlarga mansublik hissi, tengdoshlar bilan tajriba almashish va o'zaro hamkorlik o'quv motivatsiyasini kuchaytiradi,

muloqot ko'nikmalarini rivojlantiradi hamda o'rganish jarayonining samaradorligini oshiradi. Ayniqsa, onlayn kasbiy platformalar va professional hamjamiyatlarda ingliz tilida muloqot qilish talabalarni tilni real kasbiy vaziyatlarda qo'llashga undaydi hamda nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan integratsiyalash imkonini yaratadi. Texnika va iqtisodiyot yo'nalishidagi talabalar uchun kasbiy maqsadlarga yo'naltirilgan ingliz tilini o'rganish mustaqil ta'limning eng samarali shakllaridan biri hisoblanadi.

Mustaqil o'rganish jarayonini tashkil etishda talaba, avvalo, o'zining kasbiy ehtiyojlarini aniqlashi, kelajakdagi kasbiy faoliyatida qaysi til ko'nikmalari ustuvor ahamiyat kasb etishini belgilashi zarur. Bunday yondashuv o'quv jarayonini maqsadli tashkil etishga, vaqt va resurslardan oqilona foydalanishga hamda kasbiy kompetensiyalarni bosqichma-bosqich rivojlantirishga xizmat qiladi. Mustaqil ingliz tilini o'rganish samaradorligiga individual xususiyatlar ham sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Oliy ta'lim talabalari abstrakt va analitik fikrlash qobiliyatining rivojlanganligi sababli murakkab grammatik tizimlarni, ilmiy matnlarni hamda kasbiy terminologiyani mustaqil ravishda o'zlashtirish imkoniyatiga ega. Shu bilan birga, avvalgi til o'rganish tajribasi, o'ziga bo'lgan ishonch va individual o'quv strategiyalari o'quv natijalarini belgilovchi muhim omillar hisoblanadi. Ayrim tadqiqotlarda erkak va ayol talabalarining o'rganish strategiyalarida farqlar kuzatilishi qayd etilgan bo'lsa-da, samarali natijaga erishishda individual yondashuv ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Mustaqil ta'lim o'qituvchi ishtirokini butunlay inkor etmaydi. Aksincha, dastlabki bosqichlarda pedagogning metodik yo'naltirishi, o'quv strategiyalarini shakllantirishga ko'maklashishi hamda mos o'quv resurslarini tavsiya etishi talabalarining mustaqil o'rganishga tayyorligini oshiradi. Keyingi bosqichlarda esa nazorat va mas'uliyatni bosqichma-bosqich talabaning o'ziga topshirish mustaqil ta'lim kompetensiyasining shakllanishiga xizmat qiladi.

Ayniqsa, metakognitiv, kognitiv va kommunikativ strategiyalarni ongli ravishda qo'llash mustaqil o'rganish samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Ilmiy adabiyotlar tahlili natijalari texnika va iqtisodiyot yo'nalishidagi talabalarda ingliz tilini mustaqil o'rganishning to'rtta asosiy psixologik-pedagogik xususiyatini aniqlash imkonini berdi.

*Birinchi*dan, kasbiy maqsadlarga yo'naltirilgan motivatsiya ustunlik qiladi, biroq uning uzoq muddatli barqarorligini ta'minlash uchun ichki motivatsiyani ham rivojlantirish zarur.

*Ikkinchi*dan, talabalar tizimli, mantiqiy va amaliy yo'naltirilgan o'quv materiallarini afzal ko'radilar, bu esa o'quv resurslarini tanlashda albatta hisobga olinishi lozim.

*Uchinchi*dan, ingliz tilida erkin muloqot qilish bilan bog'liq psixologik to'siqlar va xavotirlar mustaqil ta'lim jarayonida ham saqlanib qolishi mumkinligi sababli ularni kamaytirishga qaratilgan metodik yondashuvlarni qo'llash muhim ahamiyatga ega.

*To'rtinchi*dan, kasbiy ehtiyojlarga moslashtirilgan o'quv mazmuni hamda autentik materiallardan foydalanish mustaqil ta'lim samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

Mazkur tahlil asosida texnika va iqtisodiyot yo'nalishidagi talabalar uchun ingliz tilini mustaqil o'rganishni takomillashtirish yuzasidan quyidagi amaliy tavsiyalarni ilgari surish mumkin:

- talabaning shaxsiy kasbiy ehtiyojlariga asoslangan individual o'quv rejasini ishlab chiqish;
- kasbiy mazmundagi autentik matnlar, ilmiy maqolalar va multimedia resurslaridan muntazam foydalanish;
- qisqa muddatli hamda aniq natijaga yo'naltirilgan o'quv vazifalarini bosqichma-bosqich bajarish;
- shuningdek, onlayn kasbiy hamjamiyatlarda faol ishtirok etish orqali ingliz tilini real kommunikativ vaziyatlarda qo'llash imkoniyatlarini kengaytirish.

XULOSA

Ushbu maqolada texnika va iqtisodiyot yo'nalishidagi oliy ta'lim muassasalari talabalarining ingliz tilini mustaqil o'rganishining psixologik-pedagogik xususiyatlari ilmiy adabiyotlar sharhi asosida tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari quyidagi ilmiy xulosalarni chiqarish imkonini berdi.

*Birinchi*dan, mazkur yo'nalish talabalari o'ziga xos kognitiv uslub (analitik, tizimli va mantiqiy fikrlash), motivatsion xususiyatlar (instrumental motivatsiyaning ustunligi) hamda emotsional xususiyatlar (xorijiy tilda muloqot qilish bilan bog'liq xavotir) bilan tavsiflanadi. Ushbu xususiyatlarni ingliz tilini mustaqil o'rganish strategiyalarini ishlab chiqishda albatta hisobga olish zarur.

*Ikkinchi*dan, English for Specific Purposes (ESP) yondashuvi, o'z-samaradorlikni (self-efficacy) rivojlantirish strategiyalari hamda kasbiy hamjamiyatlar orqali ijtimoiy o'rganishni tashkil etish texnika va iqtisodiyot yo'nalishidagi talabalar uchun ingliz tilini mustaqil o'rganishning eng samarali psixologik-pedagogik yondashuvlari sifatida ilmiy adabiyotlarda e'tirof etiladi.



Uchinchidan, texnika va iqtisodiyot yo'nalishidagi talabalarning ingliz tilini mustaqil o'rganishida kasbiy maqsadlarning aniqligi va ravshanligi muhim ustunlik hisoblanadi. Biroq o'quv jarayonida muloqot bilan bog'liq xavotir hamda ichki motivatsiyaning sustligi kabi omillarni ham e'tibordan chetda qoldirmaslik zarur.

Umuman olganda, texnika va iqtisodiyot yo'nalishidagi talabalar uchun ingliz tilini mustaqil o'rganish samaradorligi kognitiv xususiyatlar, kasbiy motivatsiya, o'z-samaradorlik, psixologik barqarorlik va kasbiy yo'naltirilgan pedagogik yondashuvlarning o'zaro uyg'unligiga bog'liq ekanligi aniqlandi. Kelgusida O'zbekistonning texnika va iqtisodiyot yo'nalishidagi oliy ta'lim muassasalari talabalarida mazkur psixologik-pedagogik xususiyatlarni psixologik testlar, so'rovnomalar, kuzatuvlar va eksperimental tadqiqotlar orqali empirik jihatdan o'rganish ilmiy hamda amaliy nuqta nazardan muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 20-noyabrdagi PQ-4507-son "Oliy ta'lim muassasalarida xorijiy tillarni o'qitish sifatini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori. <https://lex.uz/docs/-4613683>
2. Bacon, S. M. (1992). The relationship between gender, comprehension, processing strategies, and cognitive and affective response in foreign language listening. *Modern Language Journal*, 76(2), 160–178.
3. Bandura, A. (1997). Self-efficacy: The Exercise of Control. W. H. Freeman.
4. Bekleyen, N. (2009). Struggling with a foreign language: What do university students experience? *European Journal of Teacher Education*, 32(4), 407–426.
5. Belcher, D. D. (2009). What ESP is and can be: An introduction. In D. D. Belcher (Ed.), *English for Specific Purposes in Theory and Practice* (pp. 1–20). University of Michigan Press.
6. Candy, P. C. (1991). *Self-Direction for Lifelong Learning*. Jossey-Bass.
7. Chamot, A. U., & O'Malley, J. M. (1994). *The CALLA Handbook: Implementing the Cognitive Academic Language Learning Approach*. Addison-Wesley.
8. Chavez, M. (2001). *Gender in the Language Classroom*. McGraw-Hill.
9. Csikszentmihalyi, M. (1990). *Flow: The Psychology of Optimal Experience*. Harper & Row.
10. Dörnyei, Z., & Ushioda, E. (2011). *Teaching and Researching Motivation* (2nd ed.). Pearson Education.
11. Dudley-Evans, T., & St John, M. J. (1998). *Developments in English for Specific Purposes: A Multi-disciplinary Approach*. Cambridge University Press.
12. Felder, R. M., & Silverman, L. K. (1988). Learning and teaching styles in engineering education. *Engineering Education*, 78(7), 674–681.
13. Gardner, H. (1983). *Frames of Mind: The Theory of Multiple Intelligences*. Basic Books.
14. Gardner, R. C., & Lambert, W. E. (1972). *Attitudes and Motivation in Second Language Learning*. Newbury House.
15. Garrison, D. R. (1997). Self-directed learning: Toward a comprehensive model. *Adult Education Quarterly*, 48(1), 18–33.
16. Holec, H. (1981). *Autonomy and Foreign Language Learning*. Pergamon Press.
17. Horwitz, E. K., Horwitz, M. B., & Cope, J. (1986). Foreign language classroom anxiety. *Modern Language Journal*, 70(2), 125–132.
18. Hurd, S. (2006). Towards a better understanding of the dynamic role of the distance language learner. *Language Teaching Research*, 10(4), 379–403.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №7(1)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.